Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 16-oktabr, № 217 (9388) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

HAMJIHATLIKDA RIVOJLANISH VA TINCHLIKNI TA’MINLASHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 14-15-oktyabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.





Davlatimiz rahbari 15-oktyabr kuni Boku shahrida Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitida qatnashdi.

Sammitda Isroil Davlati Prezidenti Isxak Gersog, Laos Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti Txonglun Sisulit, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad bin Xalifa Ol Soniy, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Bangladesh, Bahrayn, Birlashgan Arab Amirliklari, Vyetnam, Kambodja, Rossiya, Turkiya, Falastin, Xitoy, Shri-Lanka va Hindiston hukumatlari hamda tashqi siyosat idoralari rahbarlari, shuningdek, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning yuqori martabali vakillari ishtirok etdi.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash (OHICHK) 1992-yilda tashkil etilgan, hozirgi kunda 28 ta a’zo davlat, kuzatuvchi maqomidagi 9 ta mamlakat va 5 ta xalqaro tashkilotni birlashtirgan xalqaro platforma hisoblanadi.

Kun tartibiga muvofiq, xalqaro vaziyat va hamkorlikni kengaytirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi hamda bir qator tashkiliy masalalar ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Boku sammitidagi nutqida dunyodagi chuqur geosiyosiy o‘zgarishlar yanada yaqin hamkorlik va birgalikda qarorlar qabul qilishni talab etayotgani haqida so‘z yuritdi.

– Ayniqsa, Osiyoning turli hududlaridagi qurolli nizolar barchamizni chuqur xavotirga solmoqda. Ularning oqibatlari mojaro hududidan tashqariga chiqib, siz bilan biz yashayotgan mintaqa xavfsizligiga jiddiy putur yetkazmoqda, global iqtisodiyotga zarar keltirib, millionlab insonlarning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, – dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz har qanday nizo va kelishmovchiliklar faqat tinch yo‘l bilan, siyosiy-diplomatik vositalar orqali, xalqaro huquq va barcha tomonlar manfaatlarini inobatga olgan holda hal etilishi zarurligini ta’kidladi.

O‘zaro uyg‘un va oldindan taxmin qilish mumkin bo‘lgan harakatlarga, olingan barcha majburiyatlarni bajarishga asoslangan munosabatlarning barqaror tizimini yaratishda OHICHK alohida o‘rin tutishi qayd etildi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston yetakchisi tomonidan Osiyoda ishonch infratuzilmasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, unda davlatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlikni kengaytirishning asosiy yo‘nalishlari hamda aniq chora-tadbirlarini belgilash taklif qilindi.

– Transport va energetika bo‘yicha qo‘shma loyihalar, savdo va raqamli aloqalarni rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashuvlar katta ahamiyatga ega, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz so‘zining davomida hozirgi shiddatli texnologik taraqqiyot va iqlim o‘zgarishlari ham yangi vazifalarni kun tartibiga qo‘yayotganini ta’kidladi.

– Sun’iy intellekt kundalik hayotimizni tez o‘zgartirmoqda. U cheksiz imkoniyatlar yaratish bilan birga jiddiy xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Endilikda biz raqamli taraqqiyot barchaga birdek foyda keltirishi, texnologik rivojlanishdagi farq qisqarishi uchun bor imkoniyatlarni safarbar etishimiz zarur, – dedi davlatimiz rahbari.

Shu maqsadda Texnologik ishonch va sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan foydalanish bo‘yicha Osiyo tashabbusi ilgari surildi. Uni amalga oshirish doirasida OHICHK huzurida ekspertlar maydonini tashkil etish taklifi ham bildirildi. Unda mutaxassislar umumiy tavsiyalarni ishlab chiqish va amaliy choralarni kelishib olish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga, OHICHKga a’zo davlatlarning iqlim o‘zgarishlariga moslashish borasidagi sa’y-harakatlarini birlashtirish maqsadida Iqlim barqarorligi bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish taklif etildi.

O‘zbekiston OHICHKning Inson mezoni bo‘yicha koordinatori ekanini inobatga olib, kelgusi yili mamlakatimiz Inson salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha forumni o‘tkazishga tayyorligi, bu borada Kengashning 2028-yilga qadar bo‘lgan davrga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ishlab chiqish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Qo‘shilmaslik harakatiga raislikni qabul qilishi munosabati bilan davlatimiz rahbari barchani tashkilotning kelgusi yili Toshkent shahrida o‘tkaziladigan yigirmanchi sammitiga taklif qildi.

Mamlakatimiz yetakchisi so‘zining yakunida OHICHKning tashkiliy asoslarini yanada mustahkamlash va uning nizomini takomillashtirish borasidagi ishlarni hamda Kengashning bosh kotibi lavozimiga Ozarbayjon tomonidan ilgari surilgan nomzodni qo‘llab-quvvatlashini bildirib, Ozarbayjonning Kengashga raislikni 2028-yilgacha davom ettirish niyatini olqishladi.

Sammitda davlatlar yetakchilari, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari rahbarlari ham so‘zga chiqdi.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari va ko‘p qirrali amaliy hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

So‘nggi yillarda oliy darajadagi samarali muloqotlar tufayli o‘zaro aloqalar yangi sifat bosqichiga ko‘tarilgani ta’kidlandi. Bugungi kunda Qatar kompaniyalari bilan energetika, kimyo sanoati, oziq-ovqat xavfsizligi, transport, qurilish kabi sohalarda faol ishlar olib borilmoqda, joriy yil boshidan buyon investitsiyalar o‘zlashtirilishi sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, jadal rivojlanib borayotgan madaniy-gumanitar aloqalar xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OSIYODA HAMKORLIK VA ISHONCH CHORALARI BO‘YICHA KENGASHNING YETTINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli Ilhom Geydarovich!

Hurmatli davlatlar va delegatsiyalar rahbarlari!

Xonimlar va janoblar!

Betakror Ozarbayjon zaminiga yana bir bor tashrif buyurish hamda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammiti ishtirokchilarini qutlash sharafiga muyassar bo‘lganimdan behad mamnunman.

Avvalambor, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti, hurmatli Ilhom Geydarovich Aliyevga samimiy qabul hamda sammitni yuksak darajada tashkil etgani uchun minnatdorlik bildiraman.

Hozirgi murakkab davrda Sizning muvaffaqiyatli yetakchiligingizda Ozarbayjon jadal rivojlanmoqda, uning jahondagi obro‘-e’tibori va nufuzi oshmoqda, qardosh xalqingizning farovonligi izchil o‘smoqda. Bu bizda mamlakat rahbariyatiga nisbatan yuksak hurmat tuyg‘ularini kuchaytirmoqda.

Shuningdek, biz Ozarbayjonning ushbu Kengashdagi samarali raisligini yuqori baholaymiz. Bu davrda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash doirasida o‘zaro muloqotimiz yanada mazmunli tus olib, amaliy natijalarga boy bo‘ldi.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Hammamiz guvohmiz, bugungi kunda dunyo chuqur geosiyosiy o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

Yangi tahdid va xatarlar paydo bo‘lmoqda. Bu vaziyat bizdan yanada yaqin hamkorlik va birgalikda qarorlar qabul qilishni talab etadi.

Ayniqsa, Osiyoning turli hududlaridagi qurolli nizolar barchamizni chuqur xavotirga solmoqda. Ularning oqibatlari mojaro hududidan tashqariga chiqib ketmoqda, siz bilan biz yashayotgan mintaqa xavfsizligiga jiddiy putur yetkazmoqda, global iqtisodiyotga zarar keltirmoqda va millionlab insonlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bizning bu boradagi pozitsiyamiz aniq va qat’iy: har qanday nizo va kelishmovchiliklar faqat tinch yo‘l bilan, siyosiy-diplomatik vositalar orqali, xalqaro huquq va barcha tomonlar manfaatlarini inobatga olgan holda hal etilishi zarur.

Qit’amizda nizolarning yanada keskinlashuviga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyat muhim. Biz Yaqin Sharqdagi qarama-qarshilik va G‘azodagi gumanitar vaziyatni katta tashvish bilan kuzatib boryapmiz. Ushbu mintaqada tezroq tinchlik va barqarorlik o‘rnatilishi tarafdorimiz.

Muloqot susaygan joyda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilish xavfi ortadi. Shu bois biz siyosiy kelishmovchiliklar qurolli to‘qnashuvlarga aylanib ketmasligi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz zarur. Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning o‘rni va ta’sir kuchini aynan shunda ko‘ramiz. Kengashning asosiy maqsadi Osiyoda o‘zaro hamkorlikning yaxlit infratuzilmasini shakllantirish bo‘lishi kerak.

Bu o‘rinda gap o‘zaro uyg‘un va oldindan taxmin qilish mumkin bo‘lgan harakatlar, zimmamizga olgan majburiyatlarni bajarish asosidagi munosabatlarning barqaror tizimini yaratish haqida bormoqda. Bu nizolarning oldini olish va o‘zaro maqbul qarorlarni topish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan biz Osiyoda ishonch infratuzilmasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif etamiz. Ushbu hujjatda Kengashni uzoq muddatli rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, davlatlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni va hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berilishi lozim. Xususan, transport va energetika bo‘yicha qo‘shma loyihalar, savdo va raqamli aloqalarni rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashuvlar katta ahamiyatga ega.

Siyosiy vaziyat qanday bo‘lishidan qat’i nazar, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch munosabatlarimizning doimiy va mustahkam poydevoriga aylanishi shart.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hozirgi shiddatli texnologik taraqqiyot va iqlim o‘zgarishlari barchamizning oldimizga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Ma’lumki, sun’iy intellekt kundalik hayotimizni tez o‘zgartirmoqda. U cheksiz imkoniyatlar yaratish bilan birga jiddiy xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Endilikda biz raqamli taraqqiyot barchaga birdek foyda keltirishi, texnologik rivojlanishdagi farq qisqarishi uchun bor imkoniyatlarni safarbar etishimiz zarur. Shu maqsadda Texnologik ishonch va sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan foydalanish bo‘yicha Osiyo tashabbusini ilgari suramiz. Buning uchun Kengash doirasida Ekspertlar maydonini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Unda mamlakatlarimiz mutaxassislari umumiy tavsiyalarni ishlab chiqishi va amaliy choralarni kelishib olishi mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga, Kengash iqlim o‘zgarishlariga moslashish uchun davlatlarning kuch va imkoniyatlarini birlashtira oladi deb hisoblaymiz. Buning uchun Iqlim barqarorligi sohasida sheriklik qilish bo‘yicha tashabbusni taklif etamiz. Bu suvni tejaydigan texnologiyalarni birgalikda joriy etish, “yashil” energetikani rivojlantirish va atrof-muhit holatini doimiy kuzatib borish imkonini beradi. Shu tariqa ehtimoliy xavf-xatarlarni kamaytirishimiz va kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolishimiz mumkin.

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekiston Kengashning Inson mezoni bo‘yicha koordinatori sifatida ta’lim, madaniyat va gumanitar sohalardagi aloqalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

Biz kelgusi yili Inson salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha forumni o‘tkazishga tayyormiz. Mazkur anjumanda yoshlar va xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish, sifatli ta’limdan foydalanish, raqamli transformatsiya sharoitida inson huquqlarini himoya qilish kabi masalalarni alohida ko‘rib chiqish rejalashtirilmoqda.

Ushbu sohadagi qo‘shma hamkorligimiz yanada izchil bo‘lishi uchun Kengashning yaqin ikki yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ishlab chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Kelgusi yili O‘zbekiston Qo‘shilmaslik harakatining yigirmanchi sammitiga mezbon bo‘ladi va mamlakatimiz 2030-yilga qadar ushbu tashkilotga raislik qiladi.

Qo‘shilmaslik harakati hamda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning maqsad va tamoyillari ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshash va yaqindir.

Toshkent sammiti xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va nizolarning oldini olish tizimini shakllantirishda muhim voqea bo‘lishiga umid qilamiz. Barchangizni ushbu forumda ishtirok etishga taklif qilaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

So‘zimning yakunida shuni alohida ta’kidlamoqchiman: O‘zbekiston Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning tashkiliy asoslarini yanada mustahkamlash va uning nizomini takomillashtirish borasidagi ishlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu yerda ilgari surilayotgan tashabbuslar o‘z amaliy ijrosini topishi muhimdir.

Fursatdan foydalanib, Laosning Kengashga a’zo davlat maqomini olgani munosabati bilan hurmatli Prezident Txonglun Sisulit Janobi Oliylarini tabriklayman.

Kengashning Bosh kotibi lavozimiga Ozarbayjon vakili nomzodini qo‘llab-quvvatlaymiz. Ozarbayjon tomonining Kengashga raislikni 2028-yilgacha davom ettirish niyatini olqishlaymiz. Ushbu mas’uliyatli missiyani bajarishda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 16-oktabr

HAMJIHATLIKDA RIVOJLANISH VA TINCHLIKNI TA’MINLASHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari ham belgilab olindi. Xususan, dekabr oyida o‘tadigan Doha forumida O‘zbekistondan nufuzli delegatsiya ishtirok etishi, tadbir doirasida Hukumatlararo qo‘shma komissiya va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishlarini o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Laos Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti Txonglun Sisulit bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston – Laos munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi.

O‘zaro savdo hajmini oshirish, ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish, transport, logistika, farmatsevtika, tibbiyot, turizm va boshqa sohalarda qo‘shma loyihalarni ilgari surish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish hamda ta’lim va madaniyat sohalaridagi almashinuvlarni faollashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Yetakchilar mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Kambodja Qirolligi Bosh vaziri Xun Manetni qabul qildi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Tizimli siyosiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, parlamentlararo, madaniy-gumanitar va sayyohlik yo‘nalishlaridagi almashinuvlarni faollashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish, jumladan, mamlakatlarning sanoat salohiyatini namoyish etish uchun ko‘rgazmalar o‘tkazish va ishbilarmonlik delegatsiyalarining tashriflarini tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tomonlar bu borada savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalaridagi asosiy kelishuvlarni ishlab chiqishni jadallashtirishga kelishib oldilar.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, xususan, BMT, SHHT, ASEAN, Qo‘shilmaslik harakati va boshqa tuzilmalar doirasidagi yaqin hamkorlikni davom ettirish yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vyetnam Sotsialistik Respublikasi vitse-prezidenti Vo Txi An Suan bilan uchrashdi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va yanada kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Vyetnam delegatsiyasi rahbari O‘zbekiston yetakchisiga Vyetnam Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi Bosh kotibi, mamlakat Prezidenti To Lamning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Tomonlar O‘zbekiston – Vyetnam munosabatlari jadal rivojlanib borayotganidan mamnunligini ta’kidladilar. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi izchil ortib bormoqda, turli darajalarda muntazam aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Neft-kimyo, elektrotexnika va to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjon Respublikasiga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘zA.

Munosabat

MINTAQAVIY BARQARORLIK YO‘LIDA

Boku shahrida Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu nufuzli xalqaro muloqot maydoni Osiyo mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlash, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash, mavjud muammolarni konstruktiv hal etish hamda ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.





Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sammitdagi ishtiroki O‘zbekistonning xalqaro maydonda tinchlik, barqarorlik, o‘zaro hurmat va manfaatli hamkorlikni ilgari surishga qaratilgan izchil siyosatining muhim ifodasidir. Mamlakatimiz uchun bunday platformalar nafaqat milliy manfaatlarni ilgari surish, balki Osiyo davlatlari orasida ishonch muhitini mustahkamlash va umumiy taraqqiyot maqsadlariga erishishga qaratilgan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash imkonini ham beradi.

Sammit kun tartibida tinchlik va xavfsizlik bilan bir qatorda transport bog‘liqligi, raqamlashtirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sish masalalarining o‘rin olgani alohida ahamiyatga ega. Chunki bugungi global iqtisodiy sharoitda davlatlarning taraqqiyoti ko‘p jihatdan o‘zaro bog‘liqlik, savdo yo‘nalishlarining diversifikatsiyasi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish bilan uzviy bog‘liq.

O‘zbekiston uchun Markaziy Osiyo bilan Janubiy Kavkaz o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, Kaspiy dengizi orqali o‘tuvchi transport yo‘nalishlaridan samarali foydalanish va xalqaro logistika tarmoqlariga integratsiyalashuvni kuchaytirish muhim strategik ahamiyat kasb etsa, Ozarbayjon bilan hamkorlik ushbu maqsadlarni amalga oshirishda asosiy o‘rin tutadi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish va yuk tashish jarayonlarini muvofiqlashtirish eksport imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlar uchun yangi bozorlarga chiqish sharoitlarini yaxshilash hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekiston Prezidentining Bokudagi uchrashuvlari hamda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitida ishtiroki bir-birini to‘ldiruvchi muhim siyosiy jarayonlardir. Bir tomondan, ular O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi strategik sheriklikni amaliy natijalar bilan boyitishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mamlakatimizning Osiyo miqyosidagi tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga qaratilgan ko‘p tomonlama hamkorlikdagi faol ishtirokini namoyon etadi.

Ishonchimiz komilki, davlat rahbarlari tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar va erishilgan kelishuvlarning izchil amalga oshirilishi O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlab, mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa, o‘z navbatida, xalqlarimiz farovonligi, mamlakatimiz taraqqiyoti va Osiyoda tinchlik hamda barqarorlikni ta’minlashga munosib hissa qo‘shadi.

Pokiza AHMEDJONOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

O‘ZARO ISHONCH VA BIRODARLIK TAMOYILLARI USTUVOR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Boku shahriga amaliy tashrifi doirasida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan o‘tkazgan uchrashuvi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash yo‘lidagi muhim siyosiy qadamdir.



Bugun O‘zbekiston va Ozarbayjon munosabatlari tarixiy yaqinlik, o‘zaro ishonch va birodarlik tamoyillariga tayangan holda, aniq iqtisodiy natijalar va uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan boyib bormoqda. Davlat rahbarlarining muntazam muloqoti, oliy darajada erishilayotgan kelishuvlar hamda ularning izchil amalga oshirilishi ikki tomonlama hamkorlikka yangi sur’at bag‘ishlamoqda. Ayniqsa, joriy yilning avgust oyida Ozarbayjon Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi davomida Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar tarixida alohida ahamiyatga ega. Bu hujjat nafaqat xalqlarimiz o‘rtasidagi azaliy do‘stlik va birodarlikni mustahkamlaydi, balki kelgusi hamkorlikning siyosiy va huquqiy asoslarini ham yanada boyitadi.

Boku shahridagi uchrashuvda yil boshidan buyon o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 30 foizga oshgani qayd etildi. Geologiya, energetika, qurilish, transport va logistika, yengil sanoat hamda turizm sohalaridagi qo‘shma loyihalarning faollashuvi iqtisodiy hamkorligimiz tobora amaliy mazmun kasb etayotganini ko‘rsatadi. Endilikda oldimizda turgan muhim vazifa – erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta’minlash, savdo aylanmasini izchil oshirish, o‘zaro investitsiyalarni rag‘batlantirish va sanoat kooperatsiyasini yanada chuqurlashtirish. Savdo aylanmasini 1 mlrd. dollarga yetkazish maqsadi hamkorlikning yangi bosqichiga chiqish uchun muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Senator sifatida ushbu jarayonda parlamentlararo muloqotni kengaytirish, qonunchilik bo‘yicha tajriba almashish, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay huquqiy muhit yaratish va hududlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratish zarur, deb hisoblayman. Chunki strategik kelishuvlar aholi farovonligi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va hududlar iqtisodiy salohiyatining oshishiga xizmat qilgandagina o‘zining to‘liq samarasini namoyon etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston va Ozarbayjonning transport-logistika imkoniyatlarini birlashtirish, Kaspiy dengizi orqali savdo yo‘nalishlarini rivojlantirish va Markaziy Osiyo bilan Janubiy Kavkaz o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni kuchaytirish katta istiqbolga ega. Bu hamkorlik nafaqat ikki davlat, balki butun mintaqa uchun yangi savdo imkoniyatlari, investitsiya oqimlari va iqtisodiy o‘sish manbalarini yaratishi mumkin. Madaniy-gumanitar aloqalarning kengayib borayotgani ham munosabatlarimizning mustahkam ma’naviy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlarining Bokudagi uchrashuvi o‘zaro ishonchga asoslangan siyosiy muloqot, iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi va mintaqaviy hamkorlikka intilishning yorqin ifodasi bo‘ldi. Erishilgan kelishuvlarning izchil amalga oshirilishi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlab, xalqlarimiz farovonligi va mintaqamiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi deb ishonamiz.

Komila KAROMOVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

OSIYO TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitidagi nutqida ilgari surilgan tashabbuslar mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash, davlatlar o‘rtasidagi ishonchni yuksaltirish va o‘zaro manfaatli aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashishda mamlakatlar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro ishonch va amaliy sheriklikning o‘rnini alohida ta’kidladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoda geosiyosiy ziddiyatlar, qurolli mojarolar, iqtisodiy beqarorlik va yangi xavf-xatarlar tobora murakkab tus olmoqda. Bunday sharoitda har qanday nizoni tinch yo‘l bilan, siyosiy-diplomatik vositalar orqali, xalqaro huquq normalari va barcha tomonlarning qonuniy manfaatlarini inobatga olgan holda hal etish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Prezidentimiz aynan shu tamoyilga qat’iy sodiqlikni yana bir bor namoyon etdi.



Nutqda ilgari surilgan eng muhim tashabbuslardan biri – Osiyoda ishonch infratuzilmasini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqish taklifi. Ushbu konsepsiya davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim asos bo‘lib xizmat qilishi barobarida transport, energetika, savdo, raqamli aloqalar va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytiradi.

Nutqda texnologik taraqqiyot va sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan foydalanish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Bugun raqamli texnologiyalar iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot, davlat boshqaruvi va kundalik hayotimizni tubdan o‘zgartirmoqda. Ayni paytda texnologik imkoniyatlardan foydalanishdagi tafovutlar, axborot xavfsizligi va inson huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Texnologik ishonch va sun’iy intellektdan mas’uliyat bilan foydalanish bo‘yicha Osiyo tashabbusining ilgari surilishi zamon talablariga to‘la mos keladi. Kengash doirasida ekspertlar maydonini tashkil etish esa mamlakatlar o‘rtasida tajriba almashish, umumiy tavsiyalar ishlab chiqish va raqamli taraqqiyotning inson manfaatlariga xizmat qilishini ta’minlashga ko‘maklashadi.

Yana bir muhim yo‘nalish – iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va ekologik barqarorlikni ta’minlash. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Prezidentimiz taklif etgan iqlim barqarorligi sohasidagi sheriklik tashabbusi ushbu muammolarni birgalikda hal etish, ilg‘or tajriba va texnologiyalarni ommalashtirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Inson omiliga, ta’lim va madaniyatni rivojlantirishga, yoshlar va xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga alohida urg‘u berilgani ham e’tiborga molik. Chunki har qanday islohot va taraqqiyotning asosiy maqsadi inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va manfaatlarini ta’minlashdan iborat.

O‘zbekistonning Kengash doirasida inson mezoni yo‘nalishidagi faoliyati, Inson salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha forum o‘tkazishga tayyorligi hamda yaqin ikki yilga mo‘ljallangan Harakatlar dasturini ishlab chiqish tashabbusi gumanitar hamkorlikni amaliy mazmun bilan boyitishga xizmat qiladi. Bunday muloqot maydonlari yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish, sifatli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish va inson huquqlarini himoya qilish borasida tajriba almashishda muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbarining sammitdagi nutqi O‘zbekistonning xalqaro maydonda tinchlik, o‘zaro hurmat, ishonch va teng huquqli hamkorlik tamoyillariga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi. Ilgari surilgan tashabbuslarning ahamiyati ularning amaliy ijrosida, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga aniq natijalar olib kirishida namoyon bo‘ladi.

Dilbar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Uchrashuv

PARLAMENT VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI HAMKORLIGI E’TIBORDA

Oliy Majlis Senatida O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslari ishtirokchilari bilan uchrashuv o‘tkazildi. Unda Oliy Majlis Senati a’zolari qatnashib, NNTlar faoliyatini samarali tashkil etish, ularning boshqaruv salohiyati va moliyaviy barqarorligini oshirish fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlashdi.



Tadbir davomida Senat faoliyati, parlamentning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi, nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish borasida qilinayotgan ishlar haqida ma’lumot berildi.

Shuningdek, NNTlarning davlat organlari bilan samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, aholi manfaatlarini himoya qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, NNT vakillarining huquqiy va kasbiy salohiyatini oshirish muhimligi ta’kidlandi.

SIRKULYAR IQTISODIYOTNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMADA

12 – 14-oktyabr kunlari Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo parlament platformasining sirkulyar iqtisodiyot bo‘yicha 4-mintaqaviy muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Unda Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Kobul Tursunov hamda Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi Shuhrat Aslanov qatnashdi.

Biznes va innovatsion tadbirkorlik orqali sirkulyar iqtisodiyot, iqlim va investitsiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kengaytirish mavzuiga bag‘ishlangan tadbirda Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari a’zolari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, biznes va moliya institutlari vakillari, “SWITCH-Asia” dasturining milliy koordinatorlari ishtirok etdi.

Muloqot doirasida sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, innovatsion tadbirkorlik va investitsiyalarni jalb etish masalalari muhokama qilindi. Ishtirokchilar mintaqa mamlakatlarida ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan fikr almashib, biznes loyihalari va ilg‘or tajribalarni ko‘rib chiqdi.

Sirkulyar iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirish, ularga iqlim moliyasini jalb qilish, shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ishlab chiqarish korxonasi bilan tanishish mobaynida sirkulyar iqtisodiyotning amaliy namunalari ham o‘rganildi.

“Parlament amaliyot laboratoriyasi” sessiyasida sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslari va siyosiy ustuvor yo‘nalishlar muhokamaga tortilib, parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Tadbir doirasida senatorlar Tojikiston Respublikasi parlamentiga ham tashrif buyurib, qonunchilik faoliyati jarayoni bilan tanishdi.

“Xalq so‘zi”.

Tadbir

ORZUDAN KELAJAKKA

Xalqaro qizlar kuni munosabati bilan Oliy Majlis Senatining Yoshlar parlamenti va BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi tashabbusiga ko‘ra “Orzudan kelajakka: qizlarning huquqlari, tanlovi va imkoniyatlari” onlayn kampaniyasiga start berildi. Tadbirda yoshlar, davlat organlari vakillari, turli sohalarda faoliyat yuritayotgan faol xotin-qizlar, ekspertlar va xalqaro tashkilotlar xodimlari ishtirok etdi.

Asosiy muhokamada Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi a’zosi Malika Qodirxonova, UNFPAning O‘zbekistondagi doimiy vakili Nigina Abaszada hamda Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi delegatsiyasi rahbari o‘rinbosari Renata Vrubel ishtirok etdi.

So‘zga chiqqanlar qizlarning sifatli ta’lim olishi, o‘z qobiliyatini namoyon etishi va qarorlar qabul qilish jarayonlarida qatnashishi uchun sharoit yaratish muhimligini ta’kidladi. Bunda yosh xotin-qizlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning imkoniyatlarini kengaytirish hamda jamiyat hayotida munosib o‘rin egallashiga ko‘maklashish alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi.

Eslatib o‘tamiz, ushbu tashabbus Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan “Gender tenglikka erishish uchun zararli ijtimoiy me’yorlar va qarashlarni o‘zgartirish” (CHANGE) mintaqaviy dasturi doirasida amalga oshiriladi. O‘zbekistonning barcha hududlaridagi xotin-qizlarni qamrab olishga qaratilgan mazkur jarayon 2027-yil 8-martga qadar davom etadi.

Kampaniyaning asosiy maqsadi – qizlarning huquqlari, erkin tanlovi va imkoniyatlari haqidagi muloqotni kengaytirish, ularning orzu-maqsadlarini ro‘yobga chiqarishiga ko‘maklashadigan ijtimoiy muhitni mustahkamlashga qaratilgan.

Tadbirda “Orzudan kelajakka” umummilliy onlayn media-chellenji ham taqdim etildi.

“Xalq so‘zi”.

Prezidentimiz qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Pokiston Islom Respublikasi Hukumati o‘rtasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishda hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” tasdiqlandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH YUZASIDAN TAKLIFLAR BERILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi tomonidan mamlakatimizda atmosfera havosini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini o‘rganish natijalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda aholining qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash, tabiatni, xususan, atmosfera havosini muhofaza etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Sohaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, ekologik nazoratni kuchaytirish va havo sifati monitoringini takomillashtirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga qurilish maydonlarida atmosfera havosi muhofazasi talablariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik choralarini nazarda tutuvchi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

Davlatimiz rahbarining farmon va qarorlari havoni ifloslantirmaslik borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqiga olib chiqdi.

Deputatlar tomonidan sohada qabul qilingan huquqiy hujjatlar ijrosi o‘rganilganda atmosfera havosi sifatini yaxshilash, ko‘kalamzorlashtirish ko‘lamini kengaytirish, energetika va sanoat obyektlarining ekologik ta’sirini qisqartirish, chang va avtotransport vositalaridan chiqadigan zararli tashlamalarni kamaytirish, qurilish obyektlarida chang tarqalishining oldini olish hamda Toshkent shahrining ekologik infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgani ma’lum bo‘ldi. Xususan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida bahorgi mavsumda 81 mln. tup daraxt ekilgan. Orol dengizining qurigan tubi, Orolbo‘yi va boshqa cho‘l hududlarida 194 ming gektardan ortiq yashil qoplamalar barpo etilgan. Respublika bo‘yicha 2,2 mln.dan ortiq avtotransport vositalariga ekologik stiker berilgan. “Avtomobilsiz kun” tadbirlari amalga oshirilishi natijasida atmosferaga tashlamalar kamayishiga erishilgan. Yuqori ekologik talablarga javob beradigan yonilg‘iga o‘tilishi natijasida avtotransport tashlamalari 15 foizga kamaygan.

Shuningdek, Toshkent shahrida bir qator favvoralar ishga tushirilgan, asosiy avtomobil yo‘llari va yo‘l chetlaridagi yashil hududlarni, qariyb 2,8 ming kv. metr gulzor va butalarni sun’iy sug‘orish tarmog‘i orqali sug‘orish ishlari tashkil etilgan.



Oybek RAHIMOV,
qo‘mita a’zosi:

– Muhokamada bir qator muhim masalalarga e’tibor qaratilib, tavsiyalar ilgari surildi. Jumladan, atmosfera havosi muhofazasini yanada kuchaytirish maqsadida sanoat va energetika obyektlarini ekologik modernizatsiya qilish, qurilish obyektlarini ekologik monitoring tizimlari bilan to‘liq qamrab olish, yashil hududlarni sug‘orish tizimi bilan ta’minlash ishlarini jadallashtirish lozim. Shuningdek, “Toza havo” umummilliy loyihasi doirasida 2026-yil yakuniga qadar belgilangan qisqa muddatli chora-tadbirlarni to‘liq yakunlash, avtomatik monitoring tizimlarini yanada kengaytirish, chang-gaz tozalash uskunalari modernizatsiyasini tizimli ravishda davom ettirish, qurilish obyektlarida changni bostirish talablariga rioya qilinishini ta’minlash yuzasidan ham takliflar berildi.

Yig‘ilish yakunida muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralarga tegishli tavsiyalar berildi.

KAPITAL BOZORIGA OID QONUN LOYIHASI IKKINCHI O‘QISHGA PUXTA TAYYORLANMOQDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “Kapital bozori to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlash ishlari davom etmoqda. Loyihaning hajmi kattaligi va turli huquqiy munosabatlarni qamrab olgani sababli ishchi guruh doirasida uning har bir normasi,amaldagi qonunchilik bilan bog‘liq jihatlari va taklif qilinayotgan o‘zgartirishlar batafsil ko‘rib chiqilmoqda.

Ishchi guruhning muntazam o‘tkazilayotgan yig‘ilishlarida deputatlar, soha mutaxassislari, ekspertlar hamda qonun loyihasi tashabbuskorlari birinchi o‘qishda qabul qilingan tahrirni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni muhokama etmoqda. Bunda yangi qoidalarning huquqiy jihatdan aniq ifodalanishi, turdosh qonunchilik hujjatlari bilan muvofiqligi va amaliyotda qo‘llash mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.



Dilmurod ISMOILOV,
qo‘mita a’zosi:

– Navbatdagi yig‘ilishimizda soliq, to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi hamda sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishga oid qonunchilik normalari ko‘rib chiqildi. Muhokamalarda kapital bozoridagi munosabatlarni tartibga soluvchi yangi mexanizmlarni amaldagi huquqiy normalar bilan uyg‘unlashtirish masalalariga e’tibor qaratildi. Jumladan, kapital bozori muassislariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari, kapital bozori ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan to‘lovga qobiliyatsizlik holatlarini hal qilishning alohida huquqiy mexanizmlari, shuningdek, majburiy ijro etish jarayonida undiruvga oid istisnolar nazarda tutilmoqda. Shuningdek, kapital bozori infratuzilmasi, professional ishtirokchilar faoliyati, moliyaviy vositalarning muomalasi va ular bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar ham takomillashtirilmoqda.

Ikkinchi o‘qishga tayyorgarlik jarayonidagi muhokamalar qonun loyihasidagi normalarni puxta ishlab chiqish, huquqiy noaniqliklarni bartaraf etish va ularning amaldagi qonunchilik bilan uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ishchi guruh tomonidan bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda.

“Xalq so‘zi”.

TURKIY DUNYONING BUYUK IMKONIYATLARI BOR

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zosi, “Ishonch” va “Ishonch-Doveriye” gazetalari Bosh muharriri Husan Ermatov bilan Ozarbayjon Respublikasining “avrasiya.net” sayti hamda “Xalq Cəbhəsi” gazetalari Bosh muharriri Javid Shahverdiyevning suhbati

- **Turkiy dunyo yaqin yillarda qanchalik o‘zgarishi mumkin?**
- **Davlatlarni haqiqatan bir-biriga yaqinlashtiruvchi kuch nimada?**
- **Ana shu jarayonda O‘zbekiston hamda Ozarbayjonning o‘rni qanday?**

Biz va jahon

– Husan Tohirovich, so‘nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti bosib o‘tgan yo‘lini qanday baholaysiz?

– Albatta, ijobiy. Ammo biz hali uzoq tarixiy yo‘lning boshida turibmiz. Turkiy davlatlarning yaqinlashuv, birlik va hamohang harakatni jiddiy muhokama qila boshlanganining o‘zi katta gap. Yaqin-yaqingacha bugun davlatlarimiz rahbarlari darajasida muhokama qilinayotgan ko‘plab g‘oyalar ziyolilar, tarixchilar va madaniyat namoyandalarining orzusi edi, xolos. Endilikda bu g‘oyalar amaliy siyosatga kirib kelyapti.

Menimcha, birlik hamisha amaliy ishlar bilan sinaladi. Mukammal hujjatlar imzolash, tarixiy deklaratsiyalar qabul qilish, ta’sirli nutqlar so‘zlash mumkin. Ularning asl qadr-qimmati kelishuvlar odamlar hayotida aks eta boshlaganida bilinadi. Men ushbu munosabatlardagi samimiyatni alohida urg‘ulagan bo‘lardim. Darhaqiqat, turkiy xalqlarni juda chuqur tarixiy yaqinlik bog‘lab turadi. Biroq qardoshlik rishtalarini bog‘lash uchun xotiraning o‘zi kifoya qilmaydi. Bu jarayondan g‘oyatda mamnunmiz. Endi davlatlarimiz rahbarlari belgilab berayotgan maqsadlarni jamiyat ham anglashi va qo‘llab-quvvatlashi kerak. Hamkorlik, birdamlik aloqalari yuqoridan qabul qilingan qarorlar bilangina mustahkamlanib qolmaydi. Uning samarasini odamlar o‘z kundalik hayotida his qilishi ham kerak.

Shu bois keyingi bosqichda kelishuvlarni tezroq amaliy ishlarga aylantirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Qo‘shma loyihalar va xalqlarimiz o‘rtasidagi bevosita aloqalar ortib, o‘qish, ishlash, sayohat qilish hamda birgalikda yangi tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaygan sari bu yo‘l mutlaqo tabiiy jarayonga aylanadi.

– Turkiy davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashga qaysi qo‘shma loyihalar ko‘proq xizmat qilishi mumkin deb o‘ylaysiz?

– Davlatlararo munosabatlarda pragmatizm va o‘zaro manfaat juda muhim. Bu tabiiy hol. Har bir davlat o‘z iqtisodiy barqarorligi, xavfsizligi va fuqarolari farovonligi uchun intiladi. Biroq turkiy dunyoni bog‘lab turuvchi umumiy tarixiy ildizlar va xalqlarning mushtarak manfaatlaridek juda mustahkam tayanch bor. Nazarimda, hamkorlikni rivojlantirishda bu jihat ham hamisha e’tiborda turishi kerak. Hozirgi kunda turkiy davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari har xil. Bu – hayot haqiqati. Shu bois hamkorlik mexanizmlari bir davlatning taraqqiyoti boshqalar uchun ham yangi imkoniyatlar ochib beradigan shaklda yo‘lga qo‘yilsa, nur ustiga nur bo‘lardi.

Deylik, iqtisodiy salohiyati yuqoriroq davlatlar infratuzilma, ta’lim, zamonaviy ishlab chiqarish, texnologiyalar va mutaxassislar tayyorlashga sarmoya kiritish orqali hamkorlarining imkoniyatlarini kengaytirishga hissa qo‘shishi mumkin. Pirovardida bundan barchamiz yutamiz. Chunki kuchli va barqaror qo‘shni har qanday davlat uchun zaif qo‘shnidan qimmatliroq.

Kimgadir bunday yondashuv milliy manfaat haqidagi an’anaviy tasavvur doirasidan chiqib ketgandek tuyulishi mumkin. Biroq turkiy xalqlar tarixi oson kechmagan. Uzoq davrlar davomida taqdirimiz tashqi yirik kuch markazlariga bog‘liq edi. Bizni chegaralar, siyosiy tizimlar va alifbolar ajratib tashladi, ba’zan bir-birimiz haqimizdagi tasavvurlar ham uzoqlashdi. Shuning uchun bugun bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashimiz alohida ahamiyatga ega.

– Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro nufuzini oshirish uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

– Menimcha, tashkilotning xalqaro maqomini bosh maqsadga aylantirish to‘g‘ri yondashuv emas. Vaholanki, nufuz amaliy natijalar bilan belgilanadi.

Agar Turkiy davlatlar tashkiloti yoshlarga sifatli ta’lim olish imkonini bersa, olimlarni birgalikda ishlashga undasa, tadbirkorlarga yangi bozorlar eshigini ochsa, davlatlar o‘rtasida transport yo‘laklari va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilsa, uning xalqaro obro‘-e’tibori o‘z-o‘zidan ortib boraveradi. Bilasiz, dunyo, avvalo, bunyodkorlik salohiyatiga ega bo‘lganlarni qadrlaydi.

Tarixga nazar tashlasangiz, inson kapitali, bilim, ilmiy izlanish va yetuk tafakkurni bir maqsad atrofida birlashtira olgan jamiyatlar hamisha oldinda bo‘lganini ko‘rasiz. Hozir ham har qanday davlatning kuch-qudrati, asosan, jamiyatning bilim darajasi va yangi bilim hamda g‘oyalar yaratish qobiliyati bilan belgilanadi. Fikrlaydigan, o‘rganadigan, bahslasha oladigan, izlanadigan va xatolardan xulosa chiqaradigan jamiyat eng murakkab vaziyatlarda ham oqilona yechim topa oladi.

Shu bois Turkiy davlatlar tashkilotining kelajagini, avvalo, inson kapitali, ilm-fan, ta’lim va jamiyatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik sifati bilan bog‘lagan bo‘lardim. Bu yo‘l navbatdagi tuzilma tuzish yoki hujjat qabul qilishdan ko‘ra uzoqroq vaqt, sabr va izchillikni talab qiladi, albatta. Biroq strategik nuqtayi nazardan bu – eng ishonchli yo‘l.

– Ozarbayjon, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Qirg‘iziston qo‘shma investitsiya mexanizmlari va jamg‘armalarini tashkil etyapti. Ular qanchalik samara berishi mumkin?

– Hammasi bu mexanizmlar qanday loyihalarni qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. Ular alohida guruh yoki kompaniyalarga xizmat qilibgina qolmay, davlatlar va butun mintaqa taraqqiyotiga hissa qo‘shsa, samarasi ham yuqori bo‘ladi.

Bundan o‘n yil avval Markaziy Osiyoda butunlay boshqacha muhit hukmron edi. Har bir davlat o‘zini boshqalardan ustun qo‘yar, yechilmagan muammolar, o‘zaro ishonchsizlik va raqobat sezilib turar edi. Nisbatan qisqa tarixiy davr ichida ko‘p narsa o‘zgardi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi Markaziy Osiyodagi muhitga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Mintaqa davlatlari umumiy yechimlarni faolroq izlay boshladi, ko‘plab masalalarga mushtarak kun tartibi nuqtayi nazaridan qarash shakllandi. Suv, transport, iqtisodiyot yoki xavfsizlik kabi mintaqadagi ko‘plab muammolar barchamiz uchun umumiy ekanini va ularni birgalikda hal qilish zaruratini tobora teranroq anglayapmiz.

Bugun mintaqa bir yoqadan bosh chiqarib, yetakchi davlatlar, xalqaro tashkilotlar va siyosiy tuzilmalar bilan muloqot qilyapti. Markaziy Osiyoning o‘z ovozi shakllanyapti. Bu – juda katta yutuq.

Qo‘shma investitsiya jamg‘armalari umumiy taraqqiyot va o‘zaro ko‘makning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Asosiysi, ularning natijasi hayotda aks etsin. Yangi korxonalar va yo‘llar barpo etilsin, ish o‘rinlari paydo bo‘lsin, ta’lim va rivojlanish imkoniyatlari kengaysin. Odamlar natijani ko‘rib, o‘z hayotida his qilsa, bunday mexanizmlar haqiqatan ishlayotgan bo‘ladi.

– Yaqinda Bokuda Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar Xavfsizlik kengashlari kotiblarining beshinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bugungi beqaror dunyoda turkiy davlatlar umumiy xavfsizlikni qanday ta’minlashi kerak deb o‘ylaysiz?

– Bu masalada boshqa mintaqalar tajribasiga nazar tashlash foydali bo‘lsa kerak. Yevropa davlatlari o‘z vaqtida xavfsizlikni birgalikda ta’minlash samaraliroq ekanini anglab yetdi. Ularning ko‘pchiligi yetarlicha katta iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatga ega bo‘lsa-da, umumiy mexanizmlar yo‘lini tanladi.

Zamonaviy dunyo tobora bashorat qilib bo‘lmaydigan tus olmoqda. Mahalliy nizo qisqa vaqt ichida xalqaro inqirozga aylanishi mumkinligini, harbiy, iqtisodiy, energetik, axborot va texnologik xavfsizlik chambarchas bog‘lanib ketganini ko‘rib turibmiz.

Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev O‘zbekistonga har doim samimiy va do‘stona munosabatda bo‘lib kelgan. Menimcha, xalqlarimiz o‘rtasidagi haqiqiy yaqinlik qiyin damlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlashga tayyor turishda ko‘rinadi. Tarix bizga do‘stlikning qadri og‘ir kunlarda bilinadi degan oddiy va teran haqiqatni bot-bot eslatib turadi.

So‘nggi yillardagi mojarolar xalqaro munosabatlar juda tez o‘zgarishi mumkinligini yana bir bor ko‘rsatib qo‘ydi. Tahlikali vaziyatda tashqi kafolatlar har doim ham yetarli bo‘lavermaydi. Shuning uchun davlatlar maslahatlashuv, harakatlarni muvofiqlashtirish va o‘zaro ko‘mak mexanizmlarini oldindan shakllantirishi zarur.

To‘laqonli umumiy xavfsizlik tizimini barpo etish uzoq va murakkab jarayon. Bu masalada shoshqaloqlikka, hissiyotga berilishga yoki o‘tkinchi siyosiy vaziyat ta’sirida qaror qabul qilishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Biroq, menimcha, yaqin kelajakda turkiy davlatlarning xavfsizlik sohasida ko‘proq mushtarak yechim izlashga to‘g‘ri keladi. Dunyoning bugungi holati bizni shu masala ustida jiddiy o‘ylashga undayapti.

– Sizningcha, vaqt o‘tishi bilan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida harbiy ittifoq paydo bo‘lishi mumkinmi?

– Jamoaviy mudofaa va o‘zaro himoya mexanizmlari haqida so‘z yuritganda, xavfsizlik sohasida yaqin hamkorlikka ehtiyoj borligini tan olish kerak. Ammo bunday tizimlar bir kunda shakllanib qolmaydi.

> ***Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi Markaziy Osiyodagi muhitga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Mintaqa davlatlari umumiy yechimlarni faolroq izlay boshladi, ko‘plab masalalarga mushtarak kun tartibi nuqtayi nazaridan qarash shakllandi. Suv, transport, iqtisodiyot yoki xavfsizlik kabi mintaqadagi ko‘plab muammolar barchamiz uchun umumiy ekanini va ularni birgalikda hal qilish zaruratini tobora teranroq anglayapmiz.***

Avvalo, maqsadlar haqida umumiy tushunchani shakllantirish kerak. Davlatlar qanday tahdidlardan himoyalanishni ko‘zlayotganini, umumiy mas’uliyat doirasi qayergacha borishini va har bir ishtirokchi qanday majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishga tayyorligini aniq belgilab olishi zarur.

Ishni maslahatlashuv mexanizmlarini takomillashtirish, tahdidlarni birgalikda tahlil qilish, axborot almashish va tegishli tuzilmalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishdan boshlash mumkin. Mexanizm shaklining ahamiyati yo‘q. Uni davlatlarning o‘zi milliy manfaatlar va umumiy vaziyatdan kelib chiqib belgilaydi.

Mexanizmning nomi ikkinchi darajali. Asosiy masala – qiyin vaziyatda davlatlarning hamjihat harakat qilishi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashga tayyorligi. Munosabatlarning mustahkamligi ham ana shunday damlarda sinovdan o‘tadi.

– Umumiy alifbo va til jihatdan yaqinlashish masalasi ko‘p yillardan beri muhokama qilinadi. Nega hozirgacha sezilarli natijalarga erishilmadi?

– Chunki til juda nozik masala. Unga ma’muriy usullar bilangina yondashib bo‘lmaydi. Turkiy tillar uzoq davr mobaynida turli tarixiy, madaniy va siyosiy sharoitlarda rivojlandi. Lug‘at tarkibi, talaffuz va yozuv o‘zgardi, har bir tilning o‘ziga xos adabiy an’analari shakllandi. Bularning barchasini hisobga olish va hurmat qilish zarur. Shu bois umumiy grafik asosni yaratishga shoshilmasdan, puxta yondashish kerak.

Umumiy alifbo har bir tilning xususiyatlarini saqlashi, ayni paytda turkiy xalqlarga bir-birining matnlarini osonroq o‘qish va tushunish imkonini berishi lozim. Buning uchun jiddiy ilmiy tadqiqotlar, kuchli tilshunoslar, til tarixi va yozuv bo‘yicha mutaxassislar ishtiroki zarur. Bunday qarorlar tabiiy ravishda pishib yetilishi kerak.

Umumiy alifbo g‘oyasi, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega. U xalqlarimiz o‘rtasidagi muloqotni ancha yengillashtiradi, adabiyot, madaniyat, ilmiy va ijtimoiy matnlarni yaqinlashtiradi. Biroq alifboning o‘zi kamlik qiladi. Sifatli tarjimalar, qo‘shma medialoyihalar, noshirlik dasturlari, ta’lim almashinuvlari, filmlar va ilmiy nashrlar ham zarur.

Bir-birimizning asarlarimizni qancha ko‘p o‘qisak, madaniyatimiz, musiqamiz va mamlakatlarimizdagi bugungi hayot bilan qancha yaqindan tanishsak, xalqlarimiz o‘rtasidagi yaqinlashuv ham shuncha tabiiy kechadi.

– Bugun ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni qanday baholaysiz? Qanday imkoniyatlardan hali yetarlicha foydalanayotganimiz yo‘q?

– So‘nggi olti yilda Ozarbayjonda qariyb o‘n marta bo‘ldim, turli tadbirlarda qatnashdim, odamlar bilan muloqot qildim. Har safar O‘zbekistonga bo‘lgan samimiy munosabat meni juda ta’sirlantirdi.

Rasmiy tadbirlardan tashqari, oddiy insoniy munosabatlar ham ko‘p narsani anglatadi. Suhbatdoshingning ohangi, iliq xotirasi, sening yurting haqida mehr bilan gapirishi odamni to‘lqinlantirib yuboradi. Ozarbayjonda har doim o‘zbek xalqiga va Prezidentimizga juda iliq munosabatni tuyaman. Ozarbayjonliklar og‘ir kunlarda O‘zbekiston yonma-yon turganini yaxshi eslashadi.

Bu yaqinlikning alohida ramzi – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Fuzuliy shahrida barpo etilib, Ozarbayjon xalqiga tuhfa etilgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi maktab. Menimcha, bu juda aniq va insoniy mazmunga ega qadam. Maktabda kelajak yashaydi – bolalar kamol topadi, yangi avlod ulg‘ayadi. Bunday samimiy tashabbuslar odamlar xotirasidan hech qachon o‘chib ketmaydi.

Chinakam qardoshlik shunday amallarda ko‘rinadi. Umumiy tarix va madaniyat bog‘lab turgan xalqlarimizning bugun yanada yaqinlashayotgani, bir-birini qaytadan kashf etayotgani, ayniqsa, quvonarli.

Ikki mamlakat munosabatlarining salohiyati juda katta. Savdo, investitsiya, sanoat, logistika, ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar bor. O‘zbekiston uchun Ozarbayjonning tinchligi, barqarorligi va farovonligi muhim. Safarlarim davomida Ozarbayjonda ham O‘zbekistonga xuddi shunday iliq va samimiy munosabatga ko‘p bor guvoh bo‘ldim.

Ikki xalq o‘rtasidagi ana shu o‘zaro ishonchni munosabatlarimizning asosiy qadriyatlaridan biri deb bilaman. U yillar davomida shakllanadi va davlatlarimiz hamda xalqlarimizni yanada yaqinlashtiradigan mustahkam zamin yaratadi.

– Ozarbayjon Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim transport markaziga aylanib bormoqda. U O‘zbekistonning Yevropa bozorlariga chiqishida qanday o‘rin tutishi mumkin?

– Ozarbayjon – hozir ham O‘zbekistonni Yevropa bilan bog‘laydigan transport yo‘nalishining muhim bo‘g‘ini. Mamlakatimiz uchun ishonchli transport yo‘laklari alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston – ummonga chiqish uchun kamida ikki davlat hududidan o‘tishi zarur bo‘lgan dunyodagi ikki mamlakatdan biri. Shu bois ishonchli hamkorlar va barqaror yo‘nalishlar biz uchun katta ahamiyatga ega.

Bugun O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari kengayib boryapti. Shu bilan birga Kaspiy dengizi orqali o‘tadigan yo‘nalishlarning ahamiyati ham ortmoqda. Bu borada Ozarbayjonning transport va logistika imkoniyatlari O‘zbekiston uchun muhim o‘rin tutadi.

Ozarbayjon rahbariyatining hamkorlikni yanada rivojlantirishga tayyor ekani ham tahsinga loyiq. Bunday ochiqlik uchun Prezident Ilhom Aliyevga va Ozarbayjon xalqiga samimiy minnatdorlik bildirishni istardim.

Transport yo‘laklari ahamiyati yuk tashish imkoniyatidan ancha keng. Ular yangi bozorlarga yo‘l ochadi, biznes, logistika va ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantiradi. Shuning uchun Ozarbayjon bilan hamkorlik O‘zbekiston uchun alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ozarbayjon – muhim tranzit hamkor, dengiz kommunikatsiyalariga va ular orqali Yevropa bozorlariga chiqish uchun ishonchli yo‘nalish. Davlatlarimiz o‘rtasidagi yuksak ishonch bu imkoniyatlarni ikki mamlakat taraqqiyoti yo‘lida to‘liq ishga solish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

– Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar qaysi sohalarda hamkorlikni, ayniqsa, jadal rivojlantirishi zarur deb o‘ylaysiz?

– Eng muhim yo‘nalish sifatida, avvalo, ta’lim, ilm-fan va ma’rifatni tilga olgan bo‘lardim. Jamiyat va davlatning kelajagi ko‘p jihatdan shu sohalarga bog‘liq.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston oldiga ulkan maqsad – Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish vazifasini qo‘ydi. Ajdodlarimiz bu zaminda ilm-fan, madaniyat va tafakkurning buyuk markazlarini yaratgan. Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va Ulug‘bek nomlarini tilga olar ekanmiz, ularni kamolga yetkazgan kuchli intellektual muhitni ham unutmasligimiz kerak. Bu muhitni maktablar, kutubxonalar, ilmiy markazlar, bahs-munozaralar, izlanish va bilimga yuksak hurmat shakllantirgan.

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining barpo etilishida ana shu nuqtayi nazardan chuqur ramziy ma’no yashirin. Ishonchim komilki, Prezidentimiz bunday yirik loyihani amalga oshirish haqidagi qarorga uning mamlakatimiz va kelajak avlodlar uchun ahamiyatini chuqur anglab, har tomonlama tahlil qilgan holda kelgan.

Yana bir muhim jihat bor. O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi butun dunyodan sayyohlar keladigan ma’rifiy maskan bo‘lish bilan birga jahonning yuzdan ziyod yetakchi ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari bilan turli yo‘nalishlarda hamkorlik qiladigan yirik ilmiy va intellektual maydonga aylanmoqda. Bu yerda tarixiy meros ilm-fan, ta’lim va xalqaro intellektual muloqot orqali davom etadigan zamonaviy muhit shakllanyapti.

Shu bois davlatimiz rahbari ilgari surayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi faqat O‘zbekistongagina tegishli deb o‘ylamayman. U butun turkiy dunyoning katta umumiy yutug‘iga, xalqlarimiz birligi, ma’naviy yaqinligi va mushtarak bunyodkorlik mehnatining samarasiga aylanishi mumkin.

Bugun ajdodlarimiz qoldirgan buyuk merosni yodga olishimiz va uni yangi bosqichda davom ettirishimiz zarur. Buning uchun turkiy davlatlar ilmiy va ta’limiy salohiyatini yanada yaqinlashtirishi kerak. Qo‘shma dasturlarni rivojlantirish, talaba va o‘qituvchilar almashinuvini kengaytirish, universitetlar hamda ilmiy markazlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash, eng yaxshi asarlarni tarjima qilish, kasbiy muloqot va qo‘shma tadqiqotlar uchun yangi maydonlar yaratish kelajakda, albatta, o‘z samarasini beradi.

Zamonaviy jahon ilm-fani yutuqlarini yaxshi o‘zlashtirsak, yangi texnologiyalarga ochiq bo‘lsak, shu bilan birga o‘z madaniyatimiz va an’analarimizga sodiq qolsak – marra bizniki!

Renessans – jamiyatning yangilanishi, tafakkurning uyg‘onishi. U ta’lim va iste’dod qadrlangan, ilmiy izlanish va bunyodkor mehnat rag‘batlantirilgan muhitda boshlanadi. Yosh avlod istiqbolni ko‘rsa, bilimi va qobiliyati bilan Vataniga naf keltira olishini his qilsa, taraqqiyot uchun eng muhim poydevor – shu.

Menimcha, bugun turkiy dunyo oldida aynan shu yo‘nalishda katta imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Xalqlarimizning boy merosi, kuchli intellektual salohiyati va mushtarak intilishlari bor. Endi shu salohiyatni kelajakka yo‘naltirish kerak.

XXI asr turkiy dunyoni yangi g‘oyalar, ilmiy kashfiyotlar, kuchli shaxslar va yaratuvchanlik salohiyati orqali tanisin. Xalqlarimizni yanada yaqinlashtiradigan eng mustahkam asoslardan birini ham aynan shunda ko‘raman.

(“xalqcebhesi.az” saytidan olindi).

Mamlakatimizda kechadan boshlangan biznesni ro‘yxatga olish tadbiri 30-noyabrga qadar davom etadi.

Parlament diplomatiyasi

QIZG‘IN MULOQOTLAR VA ISTIQBOLLI SHERIKLIK

12 − 15-oktyabr kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari − Dilorom Fayziyeva,Oydin Abdullayeva va Ruslan Sabirov Berlin shahrida bo‘lib,“Germaniya − Markaziy Osiyo” parlamentlararo hamkorlik guruhi vakillari bilan uchrashuvlarda ishtirok etdi.

Germaniya Bundestagida tashkil qilingan “Germaniya – Markaziy Osiyo” parlamentlararo hamkorlik guruhi vakillari bilan muloqotda joriy yil iyun oyida Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan o‘tkazilgan muzokaralarda belgilangan ustuvor vazifalarni izchil davom ettirish muhimligi ta’kidlandi. Xususan, savdo-investitsiyaviy aloqalarni kengaytirish, sanoat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va “yashil” iqtisodiyot sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha erishilgan kelishuvlarni amaliy mazmun bilan boyitishda parlamentlararo muloqotning o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.

Germaniya parlamenti a’zolari O‘zbekistondagi iqtisodiy faollikning ortishi, nemis kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar va investitsiyaviy aloqalarning kengayishini, shuningdek, turistik munosabatlardagi o‘sishni ijobiy baholadi. Parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyatini yanada samarali olib borish, uning imkoniyatlaridan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash yo‘lida keng foydalanish, bunday muloqotlarni muntazam va tizimli davom ettirish masalalariga urg‘u qaratildi. Bunda qonun ijodkorligi bo‘yicha tajriba almashish, parlament qo‘mitalari o‘rtasidagi hamkorlikni faollashtirish va o‘zaro manfaatli tashabbuslarni amaliy mazmun bilan boyitish muhimligi ta’kidlandi.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston – Germaniya parlamentlararo munosabatlarini rivojlantirish uchun institutsional asoslar ham mustahkamlanib bormoqda. 2025-yil 17-fevralda Qonunchilik palatasining Germaniya Federativ Respublikasi Bundestagi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh tuzilgani ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari o‘rtasidagi aloqalarni tizimli yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchrashuvlarda O‘zbekiston va Germaniya parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni nafaqat siyosiy muloqot, balki uni iqtisodiy, ijtimoiy va qonunchilik yo‘nalishlaridagi amaliy aloqalar orqali mustahkamlash masalalariga e’tibor qaratildi. Bunday muloqotlar mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni mustahkamlash, ilg‘or tajribani o‘rganish va uzoq muddatli sheriklikni rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

XOTIN-QIZLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDAGI SA’Y-HARAKATLAR E’TIROFI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik,raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi a’zosi Go‘zal Samiyeva Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Bator shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon ayol parlament a’zolari forumida ishtirok etdi.

Xalqaro forum xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o‘rnini mustahkamlash, ayollar yetakchiligini qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlashda parlamentlarning o‘rni, shuningdek, bu borada davlat institutlari, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish masalalarini muhokama qilish uchun muhim muloqot maydoni bo‘ldi.

Forumda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini kengaytirish hamda ayollar tashabbuslarini rag‘batlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bu borada O‘zbekistonda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash, ular uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan izchil sa’y-harakatlar xalqaro miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda to‘plangan tajribaning xalqaro muloqotlardagi taqdimoti va boshqa davlatlar tajribasi bilan qiyosiy muhokama qilinishi O‘zbekistonning xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlari va amaliy natijalarining xalqaro miqyosda e’tirof etilishiga xizmat qiladi.

“Xalq so‘zi”.



XAVFSIZ VA HURMATGA ASOSLANGAN ISH MUHITI

O‘zbekistonda xavfsiz va hurmatga asoslangan mehnat muhitini ta’minlash bo‘yicha Milliy dasturni amalga oshirish boshlanmoqda. Dasturni ishlab chiqish jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Inson kapitalini rivojlantirish loyihalar ofisi tomonidan muvofiqlashtirildi. Mazkur ofis dastur ijrosini ham muvofiqlashtirib boradi.

Anjuman

Dastur ishchi-xodimlarning huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish, tazyiq, zo‘ravonlik va kamsitish holatlarining oldini olish, shuningdek, huquqbuzarliklar yuzasidan murojaatlarni ko‘rib chiqishning samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilgan.

Poytaxtimizda mazkur Milliy dasturni ishga tushirish yuzasidan davra suhbati bo‘lib o‘tdi. Dasturni amaliyotga joriy etish bo‘yicha galdagi vazifalar davlat tuzilmalari, diplomatik korpus, xalqaro tashkilotlar vakillari va rivojlanish bo‘yicha hamkorlar ishtirokida muhokama qilindi.

Tadbirda Oliy sud raisi Robaxon Mahmudova, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining maslahatchisi, Inson kapitalini rivojlantirish loyihalar ofisining bosh koordinatori Nozimaxon Davletova, Bosh prokuror o‘rinbosari Svetlana Artiqova, BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori Sabine Mahl, BMT Aholishunoslik jamg‘armasining mamlakatimizdagi doimiy vakili Nigina Abaszada ma’ruzalar bilan ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining maslahatchisi, Inson kapitalini rivojlantirish loyihalar ofisining bosh koordinatori Nozimaxon Davletova ushbu tashabbusning ahamiyatiga to‘xtaldi. Ta’kidlanganidek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev islohotlari tufayli bugun har bir insonga, erkak yoki ayol bo‘lishidan qat’i nazar, institutlararo hurmatni shakllantirish mexanizmi yaratilmoqda. Bu har bir tashkilotda me’yorga aylanib, o‘zaro hurmat madaniyati Yangi O‘zbekiston uchun sog‘lom jamiyat va kelajakning kuchli kadrlarini shakllantiradi, dedi u pirovardida.

Anjumanda qayd etilishicha, joriy yil dekabr oyiga qadar “Xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhiti” raqamli portali ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Ushbu portal orqali davlat tashkilotlari xodimlari qoidabuzarliklar haqida anonim tarzda xabar berishlari, vakolatli organlar esa murojaatlarning ko‘rib chiqilishi va ko‘rilgan choralarni kuzatib borishi mumkin bo‘ladi. Dasturning muhim yo‘nalishlaridan yana biri mutaxassislarni o‘qitishga qaratilgan. Ya’ni mamlakatimizning 14 ta hududida 700 nafar fasilitatorni tayyorlash rejalashtirilgan. Ular davlat tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish hamda xavfsiz ish muhitini yaratish uchun mas’ul bo‘lgan 35 ming nafar xodimni o‘qitishni ta’minlaydi.

BMT Aholishunoslik jamg‘armasining O‘zbekistondagi doimiy vakili Nigina Abaszadaning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda xavfsiz va hurmatga asoslangan ish muhitini ta’minlashga qaratilgan islohotlarni ishlab chiqishda Aholishunoslik jamg‘armasi yetakchi ekspertlik va texnik ko‘mak ko‘rsatmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad – ushbu o‘zgarishlarni tashkilotlar faoliyatida mustahkam qaror toptirish va har bir inson uchun yanada xavfsiz hamda hurmatga asoslangan ish muhitini yaratishga hissa qo‘shishdir.

Tadbir yakunida Boshqaruv samaradorligi agentligi va BMT Aholishunoslik jamg‘armasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Hujjat Milliy dasturni amalga oshirish, mutaxassislarni tayyorlash va xodimlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini joriy etish borasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ulug‘bek RO‘ZIMATOV
(“Xalq so‘zi”).

XALQ VAKILLARI INNOVATSION KLASTER FAOLIYATI BILAN TANISHDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat,sog‘liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi hamda Tibbiyot va farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi hamkorligida “BioPharma City” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish klasterida “Tibbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida xalqaro standartlarni joriy qilish: mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari” mavzuida uchrashuv o‘tkazildi.

Ochiq parlament

Uchrashuv avvalida qo‘mita a’zolari “BioPharma City” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish klasterining infratuzilmasi, amalga oshirilayotgan loyihalar hamda klaster tarkibida tashkil etilgan Farmatsevtika texnik universitetining ta’lim yo‘nalishlari va imkoniyatlari bilan tanishdi.

Ta’kidlanganidek, 2026-yilning birinchi yarim yilligida farmatsevtika erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 22,3 mln. AQSh dollariga teng 2 ta, “BioPharma City” klasterida esa 38 mln. dollarlik 3 ta loyiha joylashtirilgan. Ularning amalga oshirilishi tarmoqda zamonaviy ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bir qatorda, ilg‘or bilim va ko‘nikmalarga ega soha mutaxassislarini tayyorlash, ta’lim dasturlarini ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg‘unlashtirish muhimligini ko‘rsatayotgani qayd etildi.

Muloqot davomida tibbiyot va farmatsevtika tarmog‘ining bugungi holati, uni rivojlantirish istiqbollari, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimi, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Aytilganidek, soha mutaxassislarining kasbiy bilimlarini muntazam oshirib borish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, joriy yilning birinchi yarim yilligida farmatsevtika tarmog‘ining 122 nafar mutaxassisi xorijda malaka oshirish va akademik mobillik dasturlarida ishtirok etgan. Yil yakuniga qadar “GPP” standartlari bo‘yicha 100 nafar mutaxassisni o‘qitish rejalashtirilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar 52 nafari mashg‘ulotlarda qatnashdi.



Sevara UBAYDULLAYEVA,
qo‘mita a’zosi:

– Tibbiyot va farmatsevtika tarmog‘ining barqaror rivojlanishi, avvalo, malakali kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Guvohi bo‘lganimizdek, universitetda mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, kadrlarning nazariy bilimini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash, xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Uchrashuvda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, sohaning istiqboldagi ehtiyojlarini ham hisobga olish, kadrlar tayyorlash tizimiga aniq talablar va sifat mezonlarini joriy etish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuvda, shuningdek, mahalliy farmatsevtika mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilish masalalari muhokamaga tortilib, taklif hamda tavsiyalar bildirildi.

Yakunda sohadagi mavjud muammolarni tizimli o‘rganish, ularning yechimi bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish muhimligi aytildi. Shu bilan birga, qo‘mita va agentlik o‘rtasidagi hamkorlikni izchil davom ettirish, soha rivojiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish va belgilangan vazifalar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirishga kelishib olindi.

“Xalq so‘zi”.

VALET-PARKING XIZMATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH – ASOSIY VAZIFA

Prezidentimiz Yangi Toshkent qurilishini jadallashtirish masalalari yuzasidan investor va tadbirkorlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqotida Yangi Toshkent faqat yangi uy-joy quriladigan hudud emas,balki biznes, ta’lim,tibbiyot,turizm va xizmat ko‘rsatishni o‘ziga jalb etadigan mustaqil iqtisodiy markazga aylanishi lozimligini ta’kidlagan edi.

Davra suhbati

Muloqotda shahar infratuzilmasini rivojlantirish, aholi uchun qulayliklar yaratish hamda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surilgan, jumladan, tirbandlikni kamaytirish va mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida valet-parking xizmatlarini rivojlantirish taklifi bildirilgan edi.

Shundan kelib chiqib Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zLiDeP fraksiyasi tomonidan valet-parking xizmatini huquqiy tartibga solish masalalariga bag‘ishlangan davra suhbati o‘tkazildi.

Unda fraksiya a’zolari, Ichki ishlar hamda Adliya vazirliklari, Toshkent shahar hokimligi, sug‘urta kompaniyalari, Turizmni rivojlantirish assotsiatsiyasi, Parlament tadqiqotlari instituti vakillari, tadbirkorlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda valet-parking xizmati aholi va tadbirkorlar uchun qulaylik yaratib kelmoqda. Ayni paytda transport vositalarining qabul qilinishi, saqlanishi va egasiga qaytarilishi jarayonlarida aniq huquqiy qoidalarni belgilash zarurati mavjud. Shu bois xizmat ko‘rsatuvchi operatorlar, ularning xodimlari va transport vositasi egalari o‘rtasidagi munosabatlarni qonunchilik asosida tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davra suhbatida “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonunga valet-parking xizmati, uning operatori va xodimi, transport vositasini qabul qilish va qaytarish joylariga oid asosiy tushunchalarni kiritish, shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligi, piyodalarning erkin harakatlanishi, to‘xtash va to‘xtab turish qoidalariga rioya etish, transport vositalarini tegishli toifadagi haydovchilik huquqiga ega xodimlar boshqarishi hamda xizmat ko‘rsatish joylarini qonuniy asosda tashkil etish bo‘yicha talablarni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Bundan tashqari, valet-parking xizmati taqiqlangan joylarda to‘xtashga, yo‘l va trotuarlarni o‘zboshimchalik bilan egallashga asos bo‘lmasligi zarurligi qayd etildi.

Tadbirda Fuqarolik kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish, xususan, valet-parking xizmati ko‘rsatish shartnomasining huquqiy asoslarini mustahkamlash, transport vositasini qabul qilishni tasdiqlash, avtomobil holati va mavjud shikastlanishlarni qayd etish, transport vositasining saqlanishi uchun operator javobgarligini belgilash hamda yetkazilgan zararni qoplash tartibini aniq ifodalash masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, valet-parking xizmatlari bozorida shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash, iste’molchilarning huquqlarini ishonchli himoya qilish, xizmat sifati va xavfsizligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlar uchun aniq huquqiy talablarni belgilash orqali sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, asossiz nizolar va yashirin to‘lovlarning oldini olish, sug‘urta munosabatlaridagi mas’uliyatni aniqlashtirish dolzarb hisoblanadi.

Muhokama davomida soha vakillari, sug‘urta kompaniyalari mutaxassislari va tadbirkorlarning fikr-mulohazalari, amaliy tajribasi hamda takliflari tinglandi. Savol-javoblar jarayonida xizmat ko‘rsatishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish, tadbirkorlik subyektlari uchun tushunarli va adolatli qoidalarni joriy etish, transport vositasiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni aniq belgilash, sug‘urta mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratildi.

Tadbir yakunida bildirilgan taklif va tavsiyalarni chuqur o‘rganish, ularni qonun ijodkorligi jarayonida inobatga olish muhimligi ta’kidlandi. Shuningdek, qonun loyihasini ishlab chiqish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi.

So‘z – ishtirokchilarga

Dilmurod ARTIQOV,
Qonunchilik palatasi deputati:



– Valet-parking xizmatini huquqiy jihatdan tartibga solish taklifi davlatimiz rahbarining Yangi Toshkentda tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda ilgari surgan muhim tashabbuslaridan biri bo‘ldi.

Fraksiyamiz a’zolari bu taklifni yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Zero, bu xizmatning huquqiy asoslarini belgilash aholi uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun aniq qoidalarni joriy etish, mijozlar va xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish imkonini beradi.

Davra suhbatida ham xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlar va iste’molchilarning huquq hamda majburiyatlarini belgilash, xavfsizlikni ta’minlash va mulkiy javobgarlikni qonunchilikda aniq aks ettirish bo‘yicha takliflar bildirildi. Bu esa tadbirkorlar va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta’minlash va zarar uchun kim javob berishini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Firdavs QURBONOV,
Qonunchilik palatasi deputati:



– Bugungi kunda poytaxtimizda valet-parking xizmatidan foydalanilmoqda. Biroq mazkur xizmatni ko‘rsatish tartibi va unga oid huquqiy talablar aniq belgilab qo‘yilmagan.

Shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Xo‘sh, avtomobil shikastlansa yoki uning ichidagi buyumlar yo‘qolsa, kim javobgar bo‘ladi? Transport vositasining qabul qilingani va egasiga qaytarilgani qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?

Shu nuqtayi nazardan, qonunchilikda valet-parking xizmatini ko‘rsatish tartibi, mijozlarning huquqlari va xizmat ko‘rsatuvchilarning mas’uliyatini aniq belgilash, bunda tadbirkorlar faoliyatiga ortiqcha ma’muriy to‘siqlar yaratmaslik muhim ahamiyatga ega.

Muhokama davomida soha vakillari, sug‘urta kompaniyalari mutaxassislari va tadbirkorlarning fikr-mulohazalari, takliflari tinglandi. Endilikda bildirilgan takliflar o‘rganilib, qonunchilikni takomillashtirish jarayonida inobatga olinadi.

“Xalq so‘zi”.

O‘ZBEKISTON XALQARO REYTINGDA 11 POG‘ONA YUQORILADI


Butunjahon pochta ittifoqining Xalqaro pochta aloqasi rivojlanish indeksi (2IPD) bo‘yicha O‘zbekiston 181 ta davlat orasida 64-o‘rinni egalladi.

Xushxabar

Raqamli texnologiyalar vazirligi xabariga ko‘ra, mamlakatimiz avvalgi natijaga nisbatan 11 pog‘ona yuqorilab, xalqaro reytingda sezilarli o‘sishga erishdi.

Ta’kidlash joizki, Xalqaro pochta aloqasi rivojlanish indeksi mamlakatlarning pochta sohasidagi taraqqiyotini baholash, milliy pochta tizimlarining samaradorligi va xalqaro pochta tarmoqlariga integratsiyalashuv darajasini tahlil qilishda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda pochta aloqasi nafaqat an’anaviy xat hamda jo‘natmalarni yetkazib berish, balki elektron tijoratni rivojlantirish, aholi va tadbirkorlik subyektlariga qulay logistika xizmatlarini taqdim etish hamda xalqaro savdo



aloqalarini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois pochta infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, raqamli yechimlarni joriy etish sohaning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

O‘zbekistonning xalqaro reytingda yuqorilashi milliy pochta tizimini yanada rivojlantirish, xizmatlar sifatini izchil oshirish va mamlakatning global pochta tarmog‘idagi o‘rnini mustahkamlash yo‘lidagi ijobiy natijalardan biridir.

“Xalq so‘zi”.

Yurtimizdagi degradatsiyaga uchragan yaylov yerlari maydoni 2026-yil yakuniga qadar 10 foiz, 2027-yil oxirigacha esa kamida 20 foiz qisqartiriladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan.Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-942. 19 279 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan.Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni – 00.28 Topshirildi – 00.45 1 2 3 4 5 6